SHAXS MULOQOTIDA O‘ZARO MUNOSABATLARNI O‘RNATISHGA QARATILGAN MULOQOT

Hamroyeva Gozal Baqoyevna
Shofirkon tumani MMTB ga qarashli 25-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi psixologi

Annotatsiya: Pedagogikada muloqot o‘qituvchi va o‘quvchilar jamoasining o‘zaro ta’sir malakasi, usuli va tizimini anglatib uning mohiyati, o‘zaro axborot almashishida, ta’lim va tarbiyaviy ta’sir o‘tkazishida, o‘zaro bir-birlarini tushunishga erishishlarida namoyon bo‘ladi hamda quyidagi xususiyatlarga ega: • muloqot o‘qituvchining pedagogik faoliyatida eng muhim kasbiy qurol hisoblanadi; • muloqot jarayonida uning maqsadga muvofiq amalga oshirishni ta’minlash uchun ijtimoiy nazorat va ijtimoiy qonuniyatlar muhim ahamiyatga ega; • o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlarining eng muhim tarkibiy qismi muloqot sanalib, motivatsiyada motiv qanday ahamiyat kasb etsa, u ham xuddi shunday muhim rol o‘ynaydi.

Kalit so’zlar: muloqot, ko’nikma, tajriba, kommunikatsiya…..

Muloqot - yunoncha so‘z bo‘lib, suhbatlashuv, shaxslararo suhbat va o‘zaro fikr almashuv ma’nosini bildiradi hamda ikki yoki undan ortiq kishilarning so‘zlashuvida paydo bo‘ladi. Inson muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, ta’lim-tarbiya, turli munosabatlar, axloqiy me'yorlar g‘oya va mafkura omillari ta’sirida yashab ijtimoiylashadi va shaxs sifatida kamolotga yetadi. Kishilar o‘rtasidagi o‘zaro muloqot pedagogik-psixologik fanlarning asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanib, u o; z ichiga shaxslararo munosabatning eng muhim mexanizmlarini qamrab oladi. Psixologiya fanida muomala kategoriyasi keng ma’noda tushuniladi hamda hamkorlik faoliyatining ichki aloqasini mujassamlashtirib, o‘zaro ta’sir va o‘zaro munosabatni aks ettiradi va ijtimoiy protsessual faoliyatni ifodalaydi. Pedagogikada muloqot o‘qituvchi va o‘quvchilar jamoasining o‘zaro ta’sir malakasi, usuli va tizimini anglatib uning mohiyati, o‘zaro axborot almashishida,

ta’lim va tarbiyaviy ta’sir o‘tkazishida, o‘zaro bir-birlarini tushunishga erishishlarida namoyon bo‘ladi hamda quyidagi xususiyatlarga ega: • muloqot o‘qituvchining pedagogik faoliyatida eng muhim kasbiy qurol hisoblanadi; • muloqot jarayonida uning maqsadga muvofiq amalga oshirishni ta’minlash uchun ijtimoiy nazorat va ijtimoiy qonuniyatlar muhim ahamiyatga ega; • o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlarining eng muhim tarkibiy qismi muloqot sanalib, motivatsiyada motiv qanday ahamiyat kasb etsa, u ham xuddi shunday muhim rol o‘ynaydi; • pedagogikada muloqot - o‘qituvchining o‘quvchilarga ta’sir o‘tkazish asosida o‘zaro munosabatini faol tashkil qilishi, muayyan bir maqsadni dastur asosida amalga oshirishning rejalashtirilgan funksiyasini bajarishidir; • muloqot - hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga kelib chiqadi va shaxslararo munosabat rivojlanishining ko‘p qirrali jarayoni hisoblanadi; • noto‘g‘ri pedagogik muloqotdan o‘quvchilarda qo‘rquv, o‘z kuchiga ishonchsizlik paydo bo‘ladi, ularning diqqat-e'tibori, ishchanlik harakati susayadi, nutq dinamikasi buziladi, mustaqil va erkin fikrlash qobiliyati pasayadi. Pedagogik muloqot - bu o‘qituvchining o‘quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari faoliyatda o‘zi uchun eng qulay bo‘lgan psixologik muhitni vujudga keltirib, ijobiy ruhiy iqlimni yaratishi uchun imkoniyat beruvchi kasbiy munosabatidir. Rahbarlik faoliyatining eng nozik jihati – bu o‘quv muassasasida o‘qituvchi va xodimlar bilan ish olib borish, ular faoliyatini tashkil etish, pedagogik jamoani bir maqsad-muddao yo‘lida birlashtirish, ularning hurmatini qozonish, sevimli rahbariga aylanish hisoblanadi. Bu esa rahbardan ijtimoiy psixologiya, muloqot san’ati va mahorati to‘g‘risidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga hamda kommunikativ, konstruktiv va tashkilotchilik qobiliyatlarga ega bo‘lishni talab etadi. Har bir rahbar o‘zi uchun muloqotning etikaviy tartiblarini o‘zlashtiradi, shaxsiy fazilatlari va tajribalari bilan boyitadi, manfaat hamda ehtiyojlari doirasida undan foydalanadi. Muhimi u, o‘z-o‘zini baholay olish, tashqaridan kuzatish, xattiharakatlarini muntaazam ravishda tahlil qilish, tanqidiy baho berish salohiyatiga ega bo‘lishi lozim. Mazkur etikaviy me’yorlarga amal qilish, zero, uning talablari axloqqa nisbatan nisbiy

ko‘rinish kasb qilsada, professional xizmat doirasida muvaffaqiyatga erishish garovi bo‘lib xizmat qiladi. Ma’lumki, rahbar odamlar orasida va ularga xos turli hissiyotlar og‘ushida yashaydi. Binobarin, atrofdagilarning salbiy yoki ijobiy his-tuyg‘ulari o‘zaro kundalik muloqotda tez «yuqish» xususiyatiga ega. Shuning uchun rahbar qaltis va ziddiyatli vaziyatlarda nafaqat boshqalarning hissiyoti ta’siriga berilmaslik, balki atrofdagilarga o‘z muvozanati va jilovlangan his-tuyg‘usi bilan ta’sir eta olishi kerak. Shaxsning bu fazilati bir tomondan asab tizimining tug‘ma xususiyati bilan belgilansa, ikkinchi tomondan orttirilgan hayotiy tajribaga bog‘liqdir. Asab tizimining mo‘tadilligi uchun rahbar o‘z sog‘ligi haqida qayg‘urishi lozim. Mehnat faoliyatini ratsional tarzda tashkil etish, ya’ni mehnatdagi ijobiy jihatlarga ko‘proq e’tibor berish, noxush vaziyatlarni donolik bilan bartaraf etish, ko‘proq yaqin do‘stlari davrasida bo‘lish, jismoniy tarbiya va foydali mashg‘ulotlarga ishqibozlik kayfiyatida vaqtni o‘tkazish, har qanday stressga qarshi tura olishni kuchaytiradi, shuningdek, organizmning ishchanlik qobiliyatini qayta tiklashga xizmat qiladi. Navbatdagi zaruriy xislatlardan yana biri muloqotga moyillikdir. Aniqlanishicha, rahbar o‘z kundalik faoliyatining to‘rtdan uch qismini turli-tuman muloqotga sarflaydi. Muloqotning boshqaruvdagi ahamiyatini ko‘zdan kechirar ekanmiz, beixtiyor Li Yakokka esdaliklariga duch kelamiz: «Men avtomobil sohasida bir umr ishlagan odamni bilaman. U oliy ma’lumotli bo‘lib, o‘zini boshqarish qobiliyatiga ega, shuningdek, ajoyib strateg va o‘z kompaniyasining yirik mutaxassisi edi. Lekin, uni hech qachon hech kim yuqori lavozimga tayinlamagan, chunki u o‘zga bilan muloqotda bo‘lishni bilmas edi» Muloqot-bu eng avvalo muloqot ishtirokchilari uchun ahamiyatli bo‘lgan axborotlar almashinuvidir. Muloqotning barcha vositalari ikkita katta guruh: Verbal (nutqiy) va noverbal (nutqiy bo‘lmagan) vostialarga ajratiladi. Ko‘pchilik olimlarning fikriga ko‘ra suhbat jarayonida nutqiy muloqot 35% dan kam qismini tashkil etgan holda, 65% ziyod axborot noverbal vositalar yordamida uzatiladi. Nutqiy (verbal) kommunikasiya orqali toza axborot uzatiladi. Noverbal kommunikatsiya bo‘iycha esa muloqot sherigiga bo‘lgan munosabat uzatiladi.

Odamning noverbal xulq-atvori uning psixik holati bilan chambarchas bog‘langan va ularni ifodalash vositasi bo‘lib hisoblanadi. Noverbal xulq-atvor asosida shaxsning ichki dunyosi ochiladi. Muloqot hamkorlikdagi faoliyatning psixik mazmuni shakllanishi amalga oshiriladi. Odamlar o‘zining nutqiy (verbal) xulq-atvorini o‘zgarayotgan sharoitlarga tezda moslashtirib olishlari mumkin, lekin tana tili (noverbal namoyon bo‘lish) kam o‘zgaruvchandir. Muloqotning noverbal vositalariga tananing barcha harakatlari, ovozning intonaesiya xarakteristikasi, taktil ta’sir, muloqotning makondagi tashkil etilishi kabilar kiradi. Noverbal muloqotda eng muhimlaridan biri kinestetik vositalar-boshqa odamning muloqotda ifodalovchi regulyativ vazifani bajaruvchi ko‘rish orqali idrok etiladigan harakatlaridir. Buni mimika, gavda holati, imo-ishora, nigoh yurishda namoyon bo‘ladigan ifodalovchi harakatlar kiradi. Informaesiya uzatishda asosiy rolni mimika bajaradi. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha suhbatdoshning yuzi harakatsiz bo‘lsa yoki uni ko‘rmasangiz 10- 15% axborot yo‘qotilar ekan. Mimika bilan nigoh yoki vizual kontakt juda chambarchas bog‘liq. Ko‘z yordamida odamning holati to‘g‘risida eng aniq signallar uzatiladi, chunki ko‘z qorachig‘ining kengayishi va torayishi ongli nazoratga bo‘ysunmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. E.G‘. G‘oziev “Ontogencz psixologiyasi”. Noshir, T.: 2010
2. Г.С. Абрамова “Возрастная психология” Учебное пособие для студентов вузов-МЦ “Изд-во” 2001.- 621с
3. Н.И. Вьюнова “Психологическая готовность ребенка к обучению в школе” Россия М.:2003
4. А.Г.Зикейев. Развитие речи слабослышащих учащихся. -М ., 1976.

.